



## “DEVONU LUG‘OTIT TURK” VA “ATTUHFATUZ ZAKIYATU FILLUG‘ATIT TURKIYA” LUG‘ATLARIDA FE’LLAR TASNIFI

*Karimova Xonzoda*

*Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda*

**Annotatsiya:** Maqolada “Devonu lug‘otit turk” va “Attuhfatuz zakiyatу fillug‘atit turkiya” lug‘atlarida keltirilgan fe’llarning, leksik, morfologik farqlari yoritilgan

**Kirish so‘z:** Fe’llar, “Devonu lug‘otit turk”, “Attuhfatuz zakiyatу fillug‘atit turkiya”, lug‘atlarda fe’llar ko‘rinishlari.

Tilshunosligimizda fe'l so‘z turkumi harakat bildiruvchi so‘zlar turkumi va shu turkumga oid har bir so‘zlarni anglatadi. Grammatikada “harakat” so‘zi keng tushunchali bo‘lib, nafaqat harakatni, balki holat yoki hodisani ham bildiradi. Masalan: yugurmoq, sakramoq, yig‘lamoq, uxlamoq, o‘ylamoq, sevmoq, tinchimoq, qurimoq, ko‘paymoq kabilar. “Devonu lug‘otit turk” XI asrga oid arab grafikasida yozilgan, 8 mingdan ortiq turkiy so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish maqsadida arabcha harakatlardan foydalanilgan lug‘at hisoblanadi. “Attuhfatuz zakiyatу fillug‘atit turkiya” (keying barcha o‘rinda “Attuhfa”) asari esa XIV asrda Misrda yozilgan va 3000 ta so‘zlik lug‘at, grammatikaga oid alohida bobdan tarkib topgan. Har ikki lug‘at ham ism va fe’llar bo‘limiga ajratilgan. “Attuhfa” lug‘atida keltirilgan fe’llar tushunilishi osonligi bilan ajralib turadi. Lug‘atda qipchoq lahjasida qo‘llaniladigan, ammo ma'nosi unutilgan ko‘p so‘zlar berilgan. Masalan, **śniladı** (shing’illamoq) [276], **čimdiladi** (chimchilamoq) [272], **tirmadi** (tirnamoq) [233].

“Attuhfa” lug‘atida o‘tgan zamon fe'li bo‘limida “suqlandi” so‘zi “havaslandi” deb izohlangan. Aslida esa turkiy tilda “suq” kinna ma’nosida ishlatiladi. Shuningdek, ayni bo‘limda yana ikkita so‘z berilgan: **surtudi**, **surtundi**. Bu so‘zlar qipchoq lahjasida “artish, artinish” ma’nosida ishlatiladi, ammo tarjimasida “qashidi, qashindi” deb izohlangan. Har ikkala lug‘atda ham fe’llar keltirilgan bo‘lsa-da, bir-biridan davr va asarga kiritilish uslubi bilan farq qiladi. Lug‘atlarda asosan fe’llar mastar (fe’lning noaniq shakli) shaklida qo‘llangan. “Devonu lug‘otit turk” dagi ayrim fe’llarning nisbat shakkiali bilan qo‘llanishini ko‘rishimiz mumkin: **Oqildi** (o’qildi) [205]; **Oqitti** (o’qitdi) [219]; **Oqindii** (o’qildi) [211]; **Oqimdi** (o’qishdi) [195]

Shuningdek, ko‘p fe’llar o‘tgan zamon qo‘shimchasini olgan holda kelgan: **Evdidi** (terdi) [271]; **Akundi** (o‘kundi, pushaymon bo‘ldi) [271] kabi.



Yoki **osdi** so‘zi misolida bir fe'l turli o‘rinlarda nisbat, zamon, vazifa shakllari qo‘sishchasi bilan kelganligini ko‘ramiz: **a:čdi** (osdi) [184]; **ačišdi** (osishdi) [193]; **ačildi** (osildi) [205] kabi.

Ochmoq so‘zi lug‘atda **ačturdi** (ochtirdi) [224], **ačlindi** (ochildi) [256-b], **ačsardu** (ochmoq istadi) [274] kabi variantlarda uchraydi.

“Attuhfa”da ham bu holat mavjud. Lekin “Devon”dagi kabi fe'l munosabat, vazifa shakllarini hosil qiluvchi qo‘sishchalarni olgan so‘zlar kam. Lug‘atda fe'llar asosan, o‘tgan zamon fe'l yasovchisi **-di** va noaniq shakl **-moq** qo‘sishchalar bilan kelgan:

**Jarilgadi** (masxaralamoq) [199]; **Sörödi** (teshdi) [89-b]; **bovuzla** (bo‘g‘izlamoq) [186-b].

“Devon” da bir ma'nodagi fe'lning bir necha ko‘rinishdagi variantlari uchraydi. Masalan, **öndi** (teshdi) (Xuddi shu öndi so‘zi o‘zgardi, aynidi) ma'nosida ham kelgan. Yoki “teshdi” so‘zining **öšdi** [118], **öndi** [185]; “osishdi” so‘zining **a:čišdi**, **ilišdi** [258]; “oshdi” so‘zining **a:šti**, **asundi** [241] variantlari uchraydi.

“Attuhfa”da ham bu holat uchraydi: boqmoq so‘zining **baqtı**, **majladi**; “teshdi” so‘zining **teldi**, **sörədi** kabi variantlari keltirilgan.

Har ikki lug‘atda keltirgan fe'llar bir-biridan farq qiladi. Ular orasidagi farqni misollar yordamida ko‘rib o‘tamiz:

1. Ursuqtı [245] fe’lini oladigan bo’lsak, u hozirgi adabiy tilda (yengildi) ma’nosini beradi. “Devon” da Ursuqtı so‘zi shaklida, III asrdan so’ng “Attuhfa” da “Utuzdi” [53] holatida kelgan.

2. Abidlamaq [222] – “Devon” da keltirilgan ushbu so‘z “yashirmoq” ma’nosida, “Attuhfa” da Batchdi [57] ko‘rinishida kelgan. Birinchi lug‘atdagи so‘z mastar, ikkinchi lug‘atda – di(-ti) ko‘rinishlarida kelgan. Bu lug‘atlardagi marfalogik farqi hisoblanadi. “Hozirlamoq” so‘zi “Devon” da Anutmak [221], “Attuhfa” da bazdi [83] so‘zları ham bunga misol bo’ladi.

3. Ikki lug‘atdagи so‘zlarining leksik farqini quydagilarda ko‘rishimiz mumkin: Otordi (chaldi) [186] — šaldi (chaldi) [66], Əgrişmäk (o‘ramoq) [239] — täzgindi (o‘rab oldi) [58], Ošatti (burdaladi) [218] — tatti (maydaladi) [83] Aşurdi (aksirdi) [187] — šoškurdi (aksirdi) [89], Əndi (hayron qoldi) [185-b] — taňladı (ajablandı) [90], Axtardi (ag‘dardi) [224] — aqtardi (ag‘dardi) [102], Ulaşdi (taqsim qilishdi) [197] — olādi (taqsim qildi) [103].

Ma'lum bo‘ladiki, har ikki lug‘atda ham fe'llar o‘z leksik, semantik, morfologik shakliga ega. Fe'llar davriy tuzilishi, leksik me'yorlari bilan bir-biridan farq qilgan.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. 1-jild.– Toshkent: Fanlar akademiyasi, 1963. – B. 123.



2. Attuhfatuz zakiyatuz flug‘atit turkiya. – Toshkent Fan, 1968.
3. Rahimov S., Umurqulov B. HOZIRGI OZBEK ADABIY TILI //Toshkent: O‘qituvchi.– 2003. – Т. 220.
4. Yakubova D., Qulto‘rayeva S., Umurqulov B. LINGVISTIK KORPUSDA MA’LUMOTLARNI RASMIYLASHTIRISH //«УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ» Международная научно-практическая конференция. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
5. Umurqulov B. AN ESSENTIAL FEATURE OF ARTISTIK DISCOURSE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 242-246.
6. Sadoqat R., Umurqulov B. O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING ISHLATILISHI. – 2022.
7. Umurqulov B. A METAPHOR IN ARTISTIC PROSE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 355-361.
8. Umurqulov B. Vocabulary of poetic speech //T.: Fan. – 1990.
9. Xidirova, I., & Jo‘rayeva, M. (2023). QADIMGI TURK LU`GATLARIDA QO`LLANILGAN QARIN-qarindoshlik nomlarini LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Zamonaviy fan va tadqiqotlar , 2 (4), 716–719.

